






YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yil yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatining ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda YAHM) ning hajmi 86 608,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2024-yilning yanvar-dekabr oylari bilan taqqoslaganda 107,2 foizga o'sdi.



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAHMning shakllanishida Buxoro viloyatining qo'shgan hissasi 4,7 foizga yetdi.



2024-2025- yillarning yanvar- dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari

		Mlrd. so'm		o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2024-yil	2025-yil	
	I. YAHM	73 434,1	86 608,1	107,2
	<i>shu jumladan:</i>			
	Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	71 842,1	84 662,0	107,2
	Mahsulotlarga sof soliqlar	1 592,0	1 946,1	108,8
	II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	71 842,1	84 662,0	107,2
	Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	24 391,6	27 500,8	104,2
	Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	21 928,2	26 343,3	108,4
	sanoat	15 013,2	18 383,4	107,1
	qurilish	6 915,0	7 959,9	111,3


*Buxoro viloyatining
ijtimoiy-iqtisodiy holati*

		Mlrd. so‘m		o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % da
		2024-yil	2025-yil	
	Xizmatlar	25 522,3	30 817,9	109,0
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	9 127,3	11 051,1	111,0
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	3 977,1	5 203,5	117,6
	boshqa xizmat tarmoqlari	12 417,9	14 563,3	104,8

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM 41 399,1 ming so‘mni tashkil etdi va bu ko‘rsatkich o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 105,6 foizga yuqoridir.



2024-2025- yillarning yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga hisoblangan YAHMning o‘shish sur‘atlari (o‘tgan yilning mos davriga nisbatan % hisobida)







Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo‘shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy YAHMning 97,8 foizini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 2,2 foizini tashkil etdi.

Hisobot davrida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligining YAHMning tarmoqlar bo‘yicha tarkibidagi ulushi 32,5 foizni, sanoat tarmog‘ining ulushi 21,7 foizni, qurilish sohasida 9,4 foizni va xizmatlar sohasi 36,4 foizni tashkil qildi.




2024-2025- yillarning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)

		2024- yil	2025- yil
	I. YAHM	100,0	100,0
	<i>shu jumladan:</i>		
	Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	97,8	97,8
	Mahsulotlarga sof soliqlar	2,2	2,2
	II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	100,0	100,0
	Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	34,0	32,5
	Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	30,5	31,1
	sanoat	20,9	21,7
	qurilish	9,6	9,4
	Xizmatlar	35,5	36,4
	savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	12,7	13,1
	tashish va saqlash, axborot va aloqa	5,5	6,1
	boshqa xizmat tarmoqlari	17,3	17,2




2024-2025- yillarning yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM tarkibi (jamiga nisbatan % da)


2024 - yil





2025 - yil



YAHMning o'sishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o'sish sur'atlari bilan bog'liqdir. O'sish sur'atlari qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 104,2 foiz (YAHMning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi (32,5 foiz), sanoatda 107,1 foiz (21,7 foiz), qurilishda 111,3 foiz (9,4 foiz), xizmatlar sohasida 109,0 foizni (36,4 foiz) tashkil etdi.




2024-2025- yillarning yanvar-dekabr oylarida YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2025-yilga YAHM deflyatori indeksi 2024-yildagi narxlarga nisbatan 110,0 foizni tashkil etdi. YAHM deflyatori indeksining eng yuqori ko'rsatkichlari sanoat sohasida 114,4 foiz va xizmatlarda 110,8 foiz qayd etildi.



2024-2025- yillarning yanvar-dekabr oylarida YAHMning
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha deflyator indeksi
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)



2024-2025- yillarning yanvar-dekabr oylarida kichik biznesning
hajmi va YAHMdagi ulushi
(jamiga nisbatan %da)

2024- yil

- 51 999,3 mlrd so'm
- 72,4 %

2025- yil

- 60 135,3 mlrd so'm
- 71,0 %

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik 60 135,3 mlrd so'm (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 51 999,3 mlrd so'm) ni tashkil qildi. YAHMdagi ulushi 71,0 % (2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 72,4 %) ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlikning YAHMdagi ulushining o'tgan yilning mos davriga nisbatan kamayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan bog'liq.

Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Yalpi hududiy mahsulot – milliy hisoblar tizimining asosiy ko'rsatkichi bo'lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident-institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi.

Aholi jon boshiga Yalpi hududiy mahsulot – muayyan davrda joriy narxlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini mamlakat (hudud)ning o'rtacha aholisi soniga bo'lish orqali aniqlanadi.

Yalpi qo'shilgan qiymat – ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar qiymati (ishlab chiqarish) hamda ishlab chiqarish jarayonida to'laligicha iste'mol qilingan tovarlar va xizmatlar qiymati (oraliq iste'mol) o'rtasidagi farq orqali aniqlanadi.

Mahsulotlar uchun soliqlar – tovar yoki xizmatning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda solinadigan soliqlar. Ularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, eksport va import uchun soliqlar hamda boshqalar kiradi.

Mahsulotlar uchun subsidiyalar – davlat budjetidan tovarlar yoki xizmatlarning bir birligiga, ya'ni rezidentlar tomonidan ishlab chiqariladigan, sotiladigan yoki import qilinadigan tovarlar va xizmatlarning miqdori yoki qiymatiga mutanosib tarzda to'lanadigan mablag'lar (subsidiyalar).

Mahsulotlar uchun sof soliqlar mahsulotlar uchun soliqlardan mahsulotlar uchun subsidiyalarni ayirish orqali aniqlanadi.

Yalpi hududiy mahsulot fizik hajm indeksi (o'sish sur'ati) doimiy narxlarda, ya'ni o'tgan yilning mos davri narxlarida hisoblangan hisobot davri Yalpi hududiy mahsulotni (real Yalpi hududiy mahsulot), joriy narxlardagi o'tgan yilning mos davri Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.

Yalpi hududiy mahsulot deflyator indeksi - iqtisodiyotda narxlarning o'rtacha o'zgarishini ifodalaydi va nominal Yalpi hududiy mahsulotning (joriy narxlardagi hisobot davri Yalpi hududiy mahsulot) real Yalpi hududiy mahsulotga nisbati orqali hisoblanadi.